



HUQUQBUZARLIKLAR MAXSUS PROFILAKTIKASI CHORA-TADBIRLARINING AMALDAGI TIZIMI TAHLILI

Eshnazarov Mehriddin Jo'rayevich

Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10528101>

ARTICLE INFO

Received: 11th January 2024

Accepted: 17th January 2024

Online: 18th January 2024

KEY WORDS

ABSTRACT

Jamiyatda ayrim turdagi huquqbuzarliklar yoki g'ayriijtimoiy xulq-atvorlarning, huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo'lgan, huquqbuzarlik sodir etgan, viktimligi (huquqbuzarlikdan jabrlanish ehtimoli) yuqori yoki huquqbuzarliklardan jabrlangan shaxslar toifalarining ko'payishi yoxud jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga, shaxs, jamiyat va davlat manfaatlariga tajovuz qiluvchi xatarlar va tahdidlarning yuzaga kelishi ushbu turdagi huquqbuzarliklar yoki g'ayriijtimoiy xulq-atvorlarning profilaktikasiga, ularning sabablari va sodir etilishiga imkon berayotgan shart-sharoitlarini bartaraf etishga, ayrim toifadagi shaxslarni aniqlash va ularga profilaktik ta'sir ko'rsatish uchun maxsus profilaktikasi chora-tadbirlarni amalga oshirish zaruratini keltirib chiqaradi.

Huquqbuzarliklar maxsus profilaktikasi chora-tadbirlarining tizimi deganda, huquqbuzarliklar maxsus profilaktikasini tashkil etish va amalga oshirish uchun puxta o'ylab ishlab chiqilgan tadbirlar, xatti-harakatlar majmui tushuniladi.

Mazkur chora-tadbirlar tizimining qanchalik puxta o'ylanib, ishlab chiqilganligi huquqbuzarliklar profilaktikasi turlarining samaradorligini kafolatlaydi. Ammo "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonunning maxsus profilaktikani tartibga soluvchi normalari tahlil qilinganda qonunda huquqbuzarliklar maxsus profilaktikasini amalga oshirishgacha bo'lgan bosqich, qolaversa, huquqbuzarliklar maxsus profilaktikasini amalga oshirish tartibi va shartlari yetarlicha belgilab berilmagani oydinlashadi.

Xususan, qonunning 24-moddasida "huquqbuzarliklar maxsus profilaktikasi" tushunchasiga berilgan ta'rifda "maxsus tadbirlarni ishlab chiqish" tushunchasi qo'llanilgan. Biroq qonunning boshqa biron bir normasida "maxsus tadbirlar" – o'zi nima, ular qachon, qaysi asoslarga ko'ra, kim tomonidan va qaysi tartibda ishlab chiqilishi, shuningdek qachon maxsus tadbirlar ishlab chiqilgan deb topilishi kabi masalalarga doir huquqiy tartib va mexanizm o'z ifodasini topmagan.

Qonunchilikdagi mazkur bo'shliq O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 2017-yil 12-iyulda qabul qilingan "Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmalari faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risida yo'riqnomani tasdiqlash haqida"gi 151-



son hamda 2017-yil 25-avgustda qabul qilingan “Ichki ishlar organlari tomonidan huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish tartibi to‘g‘risida yo‘riqnomani tasdiqlash haqida”gi 191-son buyruqlarda ham takrorlangan.

Shu boisdan, huquqbuzarliklar profilaktikasining maxsus va yakka tartibdagi profilaktikasi chora-tadbirlari o‘rtasida o‘zaro o‘xshashlik va nomuvofiqliklar mavjud.

Binobarin, Qonunning 29-moddasida huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi chora-tadbirlari sifatida majburiy davolanishga yuborish va ma‘muriy nazorat profilaktik tadbirlari kiritilgan bo‘lib, majburiy davolanishga yuborish alkogolizm, giyohvandlik va zaharvandlikka chalingan, ma‘muriy nazorat esa jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ayrim toifadagi shaxslarga nisbatan amalga oshiriladi.

E‘tiborli tomoni shundaki, qonunning huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasiga bag‘ishlangan normalarida ham ushbu toifadagi shaxslarga nisbatan amalga oshiriladigan profilaktik chora-tadbirlar o‘rin olgan: ilgari sudlangan shaxslar o‘rtasida huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi chora-tadbirlari (25-modda), alkogolni suiiste‘mol qiluvchi yoki giyohvandlik vositalarini, psixotrop moddalarni va aql-iroda faoliyatiga ta‘sir etuvchi boshqa moddalarni iste‘mol qiluvchi shaxslar o‘rtasida huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi chora-tadbirlari (26-modda).

Qonunda huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi chora-tadbirlari tizimining bu tarzda belgilanishi maxsus profilaktik chora-tadbirlar doirasini chegaralab qo‘yadi. Vaholanki, qonunning 24-modda 2-qismiga ko‘ra, huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi nafaqat ayrim toifadagi shaxslar, balki ayrim turdagi huquqbuzarliklar, g‘ayriijtimoiy xulq-atvorlar ko‘payganda yoki jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga, shaxs, jamiyat va davlat manfaatlariga tajovuz qiluvchi xatarlar va tahdidlar yuzaga kelganda ham amalga oshirilishi belgilangan. Qonunning huquqbuzarliklar maxsus profilaktikasi chora-tadbirlari tizimiga bag‘ishlangan normalarida esa bu kabi masalalar e‘tibordan chetda qolgan.

MDHga a‘zo davlatlarning huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid qonunchiligi tahlil qilinganida, faqatgina Qozog‘iston va O‘zbekiston Respublikalari qonunchiligida huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi turi mavjudligi ma‘lum bo‘ldi. Biroq, Qozog‘iston Respublikasida 2013-yilning 3-iyul kuni huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi profilaktikaning turi sifatida qonunchilikdan chiqarilgan¹. Ammo 2017-yil 4-oktyabrdan boshlab Qozog‘iston hududida o‘tkazilgan “Nolegal-2017” tadbiri Qozog‘iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan tezkor-profilaktik tadbir sifatida e‘tirof etilgan².

Ushbu davlatlarning huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid qonunchiligida huquqbuzarliklar maxsus profilaktikasiga nisbatan bunday yondashuvni birinchidan, huquqbuzarliklar maxsus profilaktikasining mazmunmohiyati yetarlicha tushunib yetilmaganligi, ikkinchidan, huquqbuzarliklar profilaktikasining turlari optimal mezonlar asosida tasniflanmaganligi bilan izohlash mumkin. Chunki, huquqbuzarliklar profilaktikasida muayyan huquqbuzarlik, g‘ayriijtimoiy xulq-atvor yoki ayrim toifadagi shaxslar bilan amalga oshiriladigan profilaktik chora-tadbirlarning ta‘sirchan bo‘lishi alohidalik, individuallik va

¹ Закон Республики Казахстан от 29 апреля 2010 г. №271-IV ЗПК «О профилактике правонарушений» // www.online.zakon.kz.

² “Qirg‘izlarga qarshi maxsus tadbirlar o‘tkazilmayapti” - Qozog‘iston IIV // <https://kun.uz/36653010?q=%2Fuz%2F36653010> (murojaat vaqti: 15.01.2024).



o'ziga xoslikni talab etadi. Bu esa umumiy emas, balki maxsus yondashish zaruratini keltirib chiqaradi. Vaholanki, kriminologik adabiyotlar va ilmiy tadqiqot ishlarida jinoyatchilikning oldini olishning ikkita: umumijtimoiy va maxsus-kriminologik turi tafovutlanadi.

Ushbu fikrni, Moskva megopolisida MDH mamlakatlari aholisi tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning kriminologik tavsifi va ichki ishlar organlarining profilaktikasi faoliyatini tadqiq etgan P.N. Kobes tomonidan tadqiqot predmeti sifatida Moskva ichki ishlar organlarining MDH mamlakatlari aholisi tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning umumiy va maxsus profilaktika choralari asoslangan faoliyatini belgilab olinganligi³ ham tasdiqlaydi.

Garchi, Rossiya Federatsiyasining huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid qonunchiligida huquqbuzarliklar maxsus profilaktikasi profilaktikaning turi sifatida keltirib o'tilmagan bo'lsa-da, Federal qonunning 6-moddasi 2-qismi 9-bandida huquqbuzarliklar profilaktikasining maxsus chora-tadbirlari ma'muriy, jinoyat, jinoyat-protsessual, jinoyat-ijroiya va tezkor-qidiruv tavsifiga ega bo'lib, qonunda belgilangan tartibda qo'llanilishi qayd etilgan⁴.

Bizning nazarimizda, profilaktik chora-tadbirlarning maxsusligi uning muayyan qonun hujjati bilan alohida belgilanishida emas, balki huquqbuzarliklarning aynan ko'paygan turi, alohida toifadagi shaxslar yoki yuzaga kelgan jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga, shaxs, jamiyat va davlat manfaatlariga tajovuz qiluvchi xatarlar va tahdidlarni inobatga olgan holda profilaktik chora-tadbirlarning ishlab chiqilganligi hamda kompleks yo'naltirilganligi bilan belgilanishi lozim.

Binobarin, professor M.Z.Ziyodullaev to'g'ri ta'kidlaganidek, huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi huquqbuzarliklar profilaktikasida chora-tadbirlarning aniq soha va manzilga yo'naltirilganligi, kompleks xususiyatga egaligi va samaradorligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi⁵.

Mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi samaradorligini oshirish, eng yuqori darajadagi qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, mamlakatning xalqaro maydondagi ijobiy obro'-e'tiborini oshirish maqsadida 2019-2020 yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish davlat dasturi⁶ning qabul qilinishini ham ushbu yo'nalishdagi sa'y-harakatlardan biri sifatida izohlash mumkin.

Ammo hanuzgacha mamlakatimizda maxsus profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishning umumiy tartib-qoidalari yetarlicha shakllantirilmagan. Bu esa o'z-o'zidan maxsus profilaktik tadbirlarni amalda samarali qo'llash imkonini bermaydi. Xususan, umumta'lim maktablarida "davomat tadbirlari" imkoniyatlaridan samarali foydalanilmasligi oqibatida voyaga yetmaganlar tomonidan jinoyat va ma'muriy huquqbuzarliklar sodir etilishiga yo'l qo'yilmoqda.

³ Кобец П.Н. Криминологическая характеристика и профилактика органами внутренних дел преступлений, совершаемых жителями стран СНГ в московском мегаполисе // <https://www.dissercat.com/content/kriminologicheskaya-kharakteristika-i-profilaktika-organami-vnutrennikh-del-prestuplenii-sov> (murojaat vaqti: 15.01.2024).

⁴ Федеральный Закон Российской Федерации от 23 июня 2016 г. №182-ФЗ «Об основах системы профилактики правонарушений в Российской Федерации» // <https://mvd.ru/document> (murojaat vaqti: 15.01.2024).

⁵ Ziyodullaev M.Z. Ichki ishlar organlari tayanch punktlarining huquqbuzarliklarning umumiy va maxsus profilaktikasiga doir faoliyati // O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining Oliy o'quv kurslari axborotnomasi. – Toshkent, 2017. – № 4. – B. 52.

⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 maydagi «O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5729-son farmoni // <https://lex.uz/docs/4355387#4356027> (murojaat vaqti: 15.01.2024).



Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonunda huquqbuzarliklar maxsus profilaktikasining profilaktik chora-tadbirlari tizimi yetarlicha ishlab chiqilmagan. Qonunda faqat ayrim toifadagi shaxslar bilan amalga oshiriladigan maxsus profilaktik chora-tadbirlarni belgilash bilan cheklanilgan. Bu esa, huquqbuzarliklar maxsus profilaktikasining tushunchasi, maqsadi, vazifalari, ob‘ekti va afzalliklari mazmuniga tayangan holda huquqbuzarliklar maxsus profilaktikasi chora-tadbirlari tizimini ishlab chiqish zaruratini keltirib chiqaradi.

Xususan, “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonunning 24-moddasi 1-qismida “huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi” tushunchasiga berilgan ta‘rifda “ayrim toifadagi shaxslarni aniqlash va ularga profilaktik ta‘sir ko‘rsatish” maxsus tadbir sifatida e‘tirof etilganligi, shuningdek ushbu normaning 2-qismida ayrim turdagi huquqbuzarliklar yoki g‘ayriijtimoiy xulq-atvorning, huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo‘lgan va huquqbuzarlik sodir etgan ayrim toifadagi shaxslarning ko‘payishining huquqbuzarliklar maxsus profilaktikasini o‘tkazish uchun asos sifatida keltirilganligi muayyan hisobot yoki o‘rganish davrida “huquqbuzarliklar va g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar hamda ularni sodir etgan shaxslar dinamikasini tahlil qilish hamda nisbatan ko‘paygan ayrim turdagi huquqbuzarliklar, g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar va shaxslar toifalarini aniqlash”ni maxsus profilaktik chora-tadbir sifatida belgilashni taqozo etadi.

Huquqbuzarliklar maxsus profilaktikasida axborot ta‘minoti muhim rol o‘ynaydi. Misol uchun, A.E. Pobegaylo oilaviy nizolarning maxsus-kriminologik profilaktikasi tizimini takomillashtirish yo‘nalishlaridan biri sifatida profilaktika axborot ta‘minotining maqbullashtirilishini keltirib o‘tgan⁷ bo‘lsa, O.A. Boyko esa ayollarga nisbatan g‘arazli va zo‘ravonlik jinoyatlarning kriminologik xususiyatlari va oldini olish samaradorligini oshirishda ichki ishlar organlarining axborot-tahlil faoliyatini yaxshilash zarurligi⁸ni ta‘kidlaydi.

Ayollar jinoyatchiligining oldini olish masalalarini tadqiq etgan S.A. Popova ushbu tizimni takomillashtirish bo‘yicha ilgari surgan taklif va tavsiyalarida ayollar jinoyatchiligining maxsus profilaktikasida voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi bo‘yicha yuritiladigan hisobotlar singari ayollar jinoyatchiligi bo‘yicha ham maxsus statistik hisobotlar yuritilishini ta‘minlash lozim deb hisoblaydi⁹.

Shu o‘rinda, S.B. Xujakulov to‘g‘ri ta‘kidlaganidek, huquqbuzarlikni sodir etgan va udan jabrlangan shaxslar haqidagi hamda huquqbuzarlikning sabab va sharoitlarini tavsiflovchi ma‘lumotlarni to‘liq holda yoritish va hisobini yuritishni nazarda tutuvchi elektron kartochkalarni joriy etish orqali yagona markazlashtirilgan hisobga olish tizimi va uning elektron bazasini yaratish muhim ahamiyatga ega¹⁰. Mazkur elektron bazaning yaratilishi

⁷ Побегайло А.Э. Семейное неблагополучие в системе детерминации преступного поведения несовершеннолетних: Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. – М., 2007. – 10 с.

⁸ Бойко О.А. Криминалогическая характеристика и предупреждение корыстно-насильственных преступлений, совершаемых в отношении женщин: По материалам Сибирского федерального округа: Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. – Омск, 2006. – 8 с.

⁹ Попова С.А. Криминалогическая характеристика и предупреждение женской преступности в современных условиях: По материалам Приволжского федерального округа: Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. – Нижний Новгород, 2001. – 11 с.

¹⁰ Xo‘jaqulov S.B. Huquqbuzarliklar umumiy profilaktikasini takomillashtirish (Ichki ishlar organlari faoliyati misolida). Yurid. fan. bo‘y. fals. dokt. (PhD) diss. – T., 2018. – B. 109.



huquqbuzarliklarning ahvoli, tuzilishi, darajasi va dinamikasini tezkor nazorat qilish, ko'paygan ayrim turdagi huquqbuzarliklar va shaxslar toifalarini o'z vaqtida aniqlash va tezkorlik bilan maxsus profilaktik tadbirlarni amalga oshirish imkonini beradi. Ayni paytda amaliyotning bunday imkoniyati cheklangan.

Ushbu holatda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6196-son Farmoni¹¹ bilan Ichki ishlar vazirligining huquqiy statistikani yuritishni takomillashtirish, uning kriminogen vaziyatni tahlil qilish va jinoyatchilik dinamikasini prognoz qilishdagi rolini oshirish maqsadida Ichki ishlar vazirligi Huquqiy statistika va tezkor-hisob ma'lumotlar markazi va uning hududiy bo'linmalarini tashkil etilishi, shuningdek ushbu Farmon bilan tasdiqlangan "Ichki ishlar organlari tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ning 25-bandida "markazining amaldagi axborot tizimlarini modernizatsiya qilish, ma'lumotlar bazalari bo'yicha qidirish kompleksini (rubrikator) yaratish va tegishli davlat organlari bilan integratsiya qilish" chora-tadbirining belgilanishi masalaning dolzarb-ligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Qayd etilgan ko'rsatkichlar "Avtobus", "Velosiped", "Diqqat piyoda", "Diqqat bolalar", "Mast haydovchi", "Traktor", "Harakat xavfsizligi oyligi" kabi tadbirlarning tizimli va ta'sirchan o'tkazilishini taqozo etadi.

Ko'rinib turganidek, maxsus profilaktik tadbir aniq maqsadni ko'zlashi, maqsadni esa maxsus profilaktik tadbirning nomi o'zida aks ettirib turishi lozim bo'ladi. Shunday ekan, "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonunning 24-moddasi 1-qismida "huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi" tushunchasiga berilgan ta'rifning mazmunida "maxsus tadbirlarni ishlab chiqish" nazarda tutilganligi hamda huquqbuzarliklar profilaktikasi amaliyoti tajribasida "maxsus tadbirlarga shartli nom berish" an'anasining mavjudligi – "nisbatan ko'paygan ayrim turdagi huquqbuzarliklar, g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar va shaxslar toifalarining xususiyatlaridan kelib chiqib, kompleks amalga oshiriladigan maxsus profilaktik tadbirlarni ishlab chiqish va shartli nom berish"ni ham huquqbuzarliklar maxsus profilaktikasining alohida mustaqil chora-tadbirlaridan biri sifatida belgilash kerakligini talab etadi.

Yuqoridagilarga asoslanib, O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-mayda qabul qilingan "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi O'RQ-371-sonli Qonunni quyidagi tahrirdagi yangi 24¹-modda bilan to'ldirilishi maqsadga muvofiq:

"24¹-modda. Huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi chora-tadbirlari

Huquqbuzarliklarning maxsus profilaktik chora-tadbirlari quyidagilardan iborat:

hisobot davrlarida huquqbuzarliklar va g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar hamda ularni sodir etgan shaxslar dinamikasini tahlil qilish hamda nisbatan ko'paygan ayrim turdagi huquqbuzarliklar, g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar va shaxslar toifalarini aniqlash;

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi «Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-6196-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/5344118> (murojaat vaqti: 15.01.2024).



kriminogen vaziyatni tahlil qilish, baholash hamda aniqlangan huquqbuzarliklar maxsus profilaktikasi ob'ektlarining kelgusida rivojlanishi bo'yicha bashorat (prognoz)ni amalga oshirish;

nisbatan ko'paygan ayrim turdagi huquqbuzarliklar, g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar va shaxslar toifalarining xususiyatlaridan kelib chiqib, kompleks amalga oshiriladigan maxsus profilaktik tadbirlarni ishlab chiqish va shartli nom berish (shartli nom o'tkaziladigan tadbirga mos ma'noda bo'lishi hamda tadbirning maqsad va vazifalariga to'g'ri kelishi lozim);

idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarda huquqbuzarliklar maxsus profilaktikasi tadbirlarining o'tkazish asoslari va tartibini belgilash;

ayrim turdagi huquqbuzarliklar, g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar va shaxslar toifalari yoki hududlarning xususiyatlaridan kelib chiqib, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishga doir ishlarni tashkil etish va amalga oshirishning metodikasini yaratish;

qonun hujjatlarida belgilangan asoslar yuzaga kelganda huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasini amalga oshirish;

amalga oshirilgan maxsus profilaktik chora-tadbirlar natijalarini tahlil qilish, yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni aniqlash hamda bartaraf etish;

huquqbuzarliklar profilaktikasi sub'ektlarining maxsus hisobida turuvchi shaxslar bilan individual ishlash maqsadini ko'zlovchi yakka tartibdagi profilaktik ishlar rejasini ishlab chiqish va rejada belgilangan kompleks profilaktik tadbirlarning tizimli amalga oshirilishini ta'minlash;

jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga, shaxs, jamiyat va davlat manfaatlariga tajovuz qiluvchi xatarlar va tahdidlar yuzaga kelganda zudlik bilan tezkor maxsus profilaktik tadbirlarni amalga oshirish;

jamiyatda ko'p sodir etilayotgan muayyan g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga nisbatan javobgarlikni belgilash yoki kuchaytirish choralarini ko'rish.